









YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 26 632,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yil bilan taqqoslaganda 4,8 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil narxlarga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari				
		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	23 144,8	26 632,3	104,8
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 227,2	25 894,0	104,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	917,6	738,3	105,2
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22 227,2	25 894,0	104,8
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 901,7	11 357,5	103,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 480,9	5 659,9	115,0
	sanoat	2 939,6	3 678,5	115,8
	qurilish	1 541,3	1 981,4	113,6
	Xizmatlar	7 844,6	8 876,6	100,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 666,6	1 860,8	99,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 229,2	1 359,2	101,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 948,8	5 656,6	100,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9 380,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 % ga yuqoridir.



**Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi
va mutlaq o'sish sur'atlari**







Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 43,9 % ni, sanoat tarmog'i 14,2 % ni, qurilish 7,7 % ni va xizmatlar sohasi 34,2 % ni tashkil qildi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)


		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	96,0	97,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,0	2,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi	44,5	43,9
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	20,1	21,9
	sanoat	13,2	14,2
	qurilish	6,9	7,7
	Xizmatlar	35,4	34,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	7,5	7,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	5,2
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,4	21,8




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,9 %), sanoatda – 115,8 % (14,2 %), qurilishda – 113,6 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 100,4 % (34,2 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari tashish va saqlash, axborot va aloqa – 101,5 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida – 100,5 % (21,8 %) dan iborat bo'ldi. Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda kamayish kuzatildi – 99,2 % (7,2 %).



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 113,2 % va xizmatlarda – 112,8 % qayd etildi.

YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)

